



MAKTABDA ONA TILI DARSLARIDA MA’NODOSH SO‘ZLARNI O’QITISHDA METODOLOGIK YANGILIKLAR

“University of economics and pedagogy “NOTM Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kafedrasi o’qituvchisi **Qanoatova Nazokat Sotivoldi qizi**
Andijon Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 1-kurs 06-guruh **Qodirova Robiyaxon Xasanboy qizi**

Annotatsiya: ushbu maqolada ma’nodosh so‘zlar (sinonimlar) talaffuzi, yozilishi bilan bog’liq bo’lgan o’z pedagogik tajribamda ishlatgan pedagogik texnologiyalar haqida yozmoqchiman. Sinonimlar bir-biridan qo’shimcha ma’no qirrasi, emotSIONAL bo‘yog‘i, qo’llanilishi jihatidan o’zaro farqlanadi.

Kalit so‘zlar: ma’nodosh so‘zlar, grammatika, uslubiyat, til ifodaliligi, atama, predmet, didaktik material

В данной статье я хочу рассказать о педагогических технологиях, которые использовал в своей педагогической практике, связанных с произношением и написанием синонимичных слов. Синонимы отличаются друг от друга дополнительными оттенками значений, эмоциональной окраской и особенностями употребления.

Ключевые слова: синонимы, грамматика, стилистика, выразительность речи, термин, предмет, дидактический материал

Annotation (in English): In this article, I intend to describe the pedagogical technologies I have used in my teaching practice related to the pronunciation and spelling of synonymous words. Synonyms differ from each other in terms of additional semantic nuances, emotional coloring, and usage features.

Keywords: synonyms, grammar, stylistics, language expressiveness, term, subject, didactic material.



Katta, ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant sinonimik qatorini tashkil qilgan so‘zlardan katta so‘zi keng tushunchani anglatib, aniq tushunchaga nisbatan ham, mavhum tushunchaga nisbatan ham ishlatilaveradi. ulug‘, buyuk, zo‘r, azim, ulkan so‘zlari hajmi ancha katta bo‘lgan narsalarga, bahaybat, haybatli so‘zlari esa o‘lchovi juda katta bo‘lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. yirik kam ishlatiladi. gigant kitobiy uslubga xos bo‘lib, asosan joy, qurilishga nisbatan qo‘llanadi. Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bunday so‘zlar bilan ishlash juda muhim. kishi lug‘atida sinonimlar qancha ko‘p bo‘lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi. o‘zbek tili - sinonimlarga boy til. „o‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati» da katta so‘zning 11 ta, marta so‘zning 13 ta sinonimi berilgan. Boshlang‘ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma’lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi: o‘quvchilar berilgan so‘zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2 -3-sinflarda esa berilgan so‘zning 2 - 3 sinonimini topib aytishga o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich sinflarda ma’nodosh so‘zlarga oid quyidagicha mashqlar ishlatiladi: 1. Berilgan ma’nodosh so‘zlarni guruhash. Bunda bir so‘z turkumiga oid ikki sinonimik qatordagi so‘zlar ichiga bir-ikkita boshqa so‘z kiritib beriladi. o‘quvchilar sinonimlarni ikki guruhgaga ajratib aytadilar.

Buning uchun so‘zlar quyidagi kabi berilishi mumkin: vatan, maqsad, diyor, niyat, mamlakat, murod, yurt. 2. Berilgan so‘zga sinonim tanlash. o‘qituvchi otni o‘tganda osmon, sifatni o‘tganda mazali, fe’lni o‘tganda ko‘nikmoq so‘zlarini aytadi. o‘quvchilar bu so‘zlarga sinonim tanlaydilar: osmon - ko‘k, samo, falak; mazali - lazzotli, laziz, totli; ko‘nikmoq - o‘rganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq. 3. Tushirib qoldirilgan sinonim so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, matnni ko‘chirish. o‘quvchilar sinonimlarni o‘rniga qo‘yib, ularning qo‘llanilishidagi farqni tushuntiradilar. 4.

Ma’nodosh so‘zlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirish. Buning uchun sinonim so‘zlar qatori qavs ichida beriladi, o‘quvchi gapning mazmuniga mosini tanlab gapni ko‘chiradi: Daryo suvini (bahor, ko‘klam) toshirar, odam qadrini



(mehnat, ish) oshirar. oltin (o‘t, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi. Birlashgan (yov, dushman) ni qaytarar. 5. Sinonim so‘zlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun to‘rtta sinonimik qatordagi so‘zlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi. o‘qituvchi shu katakchalardagi bir so‘zni aytadi.

Masalan, chiroqli. o‘quvchilar shu so‘zga yaqin ma’noli so‘z (sinonim)ni katakchalardan topib aytadilar: go‘zal, dilbar, sohibjamol, husndor. Sinonim so‘zlar qatori bilan so‘z birikmasi tuzadilar: chiroqli shahar, go‘zal manzara, sohibjamol malika va hokazo. So‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘siradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. atamalarning ma’nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma’nosini tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma’noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe’l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi. So‘zning ma’nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmasligi kerak.

Buning uchun o‘qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma’nosini tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o‘rnida tushuntirishni belgilab oladi. O‘qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma’nosini bilmaydigan ayrim so‘zlar matnni o‘qishdan oldin tushuntiriladi. Matnni o‘qish jarayonida so‘z ma’nosini tushuntirishga chek qo‘yish kerak. agar biror so‘zni matnni o‘qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug‘ilsa, matn mazmunidan o‘quvchilar diqqatini chalg‘itmagan holda shu so‘z ma’nosini qisqacha tushuntiriladi. ko‘chma ma’noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq birliklari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosini matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi. ona tili fani o‘quvchilarni fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga



tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning Grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifini o'zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishslashga alohida e'tibor qaratish lozim. lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tutiladi. Bular ustida ishslashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgalar nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llangan har bir so'zning va ta'limiylar jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirdarda ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishslashni taqozo etishini belgilab olishi kerak. Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda leksik birliklar, xususan, ma'nodosh so'zlearning o'rni beqiyosdir. Ma'nodosh so'zlar bilan ishslash o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, nutq aniqligi va ifoda tiniqligi, stilistik sezuvchanlik kabi muhim til ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuning uchun ham ularni o'qitishda qo'llaniladigan metodologik yondashuvlar yangilanib, zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida boyitilmoqda.

An'anaviy yondashuvlar faqat so'z yodlashga asoslangan bo'lsa, hozirgi metodik yangiliklar o'quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi. O'qituvchining asosiy vazifasi – o'quvchini mustaqil izlanishga, fikr yuritishga, kontekst asosida to'g'ri ma'no ajratishga o'rgatishdan iborat bo'lmoqda. Bunda interfaol metodlar, loyihaviy topshiriqlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Klaster, "aqliy hujum", rolli o'yinlar, matn asosida ishslash kabi usullar yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, o'rganilgan so'zlarni real nutq vaziyatida qo'llashni o'rganadilar. Bu orqali ularning nutqiy faolligi, ijodiy fikrlashi va tilni ongli ravishda o'zlashtirishi ta'minlanadi.



Yana bir muhim jihat – bu mavzuni o‘rganish orqali o‘quvchilar leksik sinonimiya, ma’no nozikliklari, stilistik tafovutlar haqida bilimga ega bo‘ladi. Bu esa ularning nutq madaniyati, adabiy tilga hurmati va estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’nodosh so‘zlarni o‘qitishdagi metodologik yangiliklar faqatgina bilim berishga emas, balki o‘quvchini fikrlaydigan, tahlil qiladigan va erkin ifodalaydigan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. Ona tili darslarida ushbu mavzuni innovatsion va zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish ta’lim sifatini yuksaltiradi va o‘quvchilarda lingvistik kompetensiyani mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

1. Qosimova K. va boshqalar. ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2009
2. G‘ulomov A. va boshqalar. ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2012